

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



HAYKALTAROSHLIK

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lif

Ta'lif sohasi: 110000 - Ta'lif

Ta'lif yo'nalishi: 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

Fan/modul kodi Hayk 304	O'quv yili 2025-2026	Semestr 6	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lrim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Haykaltaroshlik	60	60	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni. Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda badiiy tafakkur, ijodiy qobiliyat, ko'rib eslab qolish, fazoviy tasavvurni shakllantirish, san'at asarlariga nisbatan estetik munosabatni, go'zallikka bo'lgan muxabbatni rivojlantirish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish ko'nikmasini xosil qilish.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni haykaltaroshlikka oid nazariy asoslarini, amaliy ish jarayonidagi tushuncha va bilimlarni, belgilangan vazifalar orqali oddiyidan murakkab tomon bosqichma- bosqich ishslash qonun-qoidalarini amaliyotga tadbiq etish ko'nikmasini xosil qilish xamda ularda ijodkorlik kompitensiyalarini shakllantirish.</p> <p>II. Amaliy qism (amaliy mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-mavzu. Geometrik shakllardan tuzilgan rozetka ishslash Gips naqsh rozetkasini tasvirlashdan asosiy maqsad talabalarni yuqori kurslarda murakkab elementli ob'yektlarning shakllari va bo'rtma naqshlarini tasvirlay olishga o'rgatishning poydevori hisoblanadi. Qo'yilgan vazifani amalga oshirishda relefli ornamentni bajarish maqsadga muvofiq. Rozetkaning konstruktiv qurilishi va uni soya-yorug' tusini belgilash o'quvchilardan diqqat-e'tiborni talab etadi. Rozetka chizuvchilarga nisbatan ko'z balandligida ochkulrang fonda joylashtiriladi. o'quvchilar rozetkani yon tomondan kuzatib, ayrim perspektiv qisqarishlarning tasvirini bajarishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.</p> <p>2-mavzu. Ikki-uch buyumdan tashkil etilgan natyurmortning relyefini ishslash. Narsaning umumiylarini, qarash nuqtasiga nisbatan fazoviy joylashuvi uning burchak ostida va narsaning ufq chizig'idan ko'rileyotgan yuqori yoki quyida joylashishiga bog'liq. Buni shar, kub, qilindr va boshqa geometrik jismlarda hamda meva va sabzavotlarda kuzatishimiz mumkin. Albatta, ularning hajmini fazoviy kenglikdagi joylashuvi turlichadir. Masalan, shar, kub, qilindrning o'rta chizig'i tug'ri chiziq sifatida bo'lib, ularning hajmli shaklini simmetrik Xolatda teng ikkiga ajratuvchi o'rta chiziq tug'ri chiziq ko'rinishida bo'lsa, nosimmetrik jismlarda o'tkazilgan o'rta chiziqlarning Egilganlik darajasi juda sezilarli bo'lib ko'rinishadi.</p>			

	<p>IX. Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, "O'zbekiston", 2017 Abdullaev N. O'zbekiston san'ati tarixi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2007, 236 b. P.Thomas, A.Taylor Drawing, London-2011" B.Barber "Full course of the drawing", Barselona-2014. <p>X. Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> www.cspi.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy veb sayti www.ziyonet.uz – Uz.Zienet kutubxonasi bazasi www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi ta'lrim portali https://www.natlib.uz/ -O'zbekiston milliy kutubxonasi
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023 yil “<u>29</u>” <u>08</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: U.K.Yusupov CHDPU, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasini katta o'qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: O'N.Nurto耶ev - Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Tasviriy san'at kafedrasini mudiri p.f.n., dotsent B.B.Baymetov –CHDPU, "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasini p.f.n. professori.

	<p>3-mavzu. Qush va xayvonlar haykalini ishlash.</p> <p>Haykaltaroshlik mashg'ulotlarini ikki usulda olib borish maqsadga muvofid bo'ladi. 1. Natura qarab haykal ishlash. 2. Tasavvurdan mustaqil kompozitsiya ishlash. Naturadan haykal ishlatishning asosiy maqsadi talaba va o'quvchilarga mashg'ulotlar davomida kuzatish, hajmni to'liq xis qilish orqali qo'yilmani anid ifodalashga o'rgatishdan iboratdir. O'rganuvchilarga naturani aynan o'zin mexanik ravishda tasvirlamasdan, undagi shu naturaga xos qismalarning hajmini va barcha sifatlarini kuzatish orqali amalda tasvirlash qibiliyatlarini o'stirish muhimdir. Tasavvurdan haykal kompozitsiyasini yaratish talabalarda birinchi galda xotirani mustahkalaydi, bundan tashqari ularning fikrlash qibiliyatlarini o'stiradi va mustaqil ijodiy mahoratlarini amalda qo'llay bilishga o'rgatadi.</p> <p>4-mavzu. David haykalining yuz qism bo'laklarini ishlah. (Burun, lab)</p> <p>Haykaltaroshlikda hayvonlar, parrandalar va odam plastik anatomiyasini bilish juda muhimdir. Shuni inobatga olgan xolda, o'tilgan mashg'ulotlar davomida talabalarning haykal ishlash ko'nikma va malakalarini bir muncha oshganligini hisobga olib, odam boshining plastik anatomiyasi bilan xam tanishtirish nazarda tutildi. Odam yuz kismlarining eng yaxshi modellari sifatida butun dunyoda Mikelanjelo Buanarotti tomonidan ishlangan «David» haykalining yuz qismidan olingan bo'laklaridan foydalilanadi. Ushbu asardagi detallar juda aniq va hajmli shakllar anatomik bilimlar asosida mukammal ishlanganligi sababli, ulardan andoza olib ishlash mobaynida bu shakllarni yaratish jarayonini bilish haykaltarosh uchun zarur bo'lgan anatomiyani o'rganiganligi qo'l keladi.</p> <p>5-mavzu. Quloq qismini islsh.</p> <p>Quloq. Odamning qulog'i, garchi uning shakli turli kishilarda turlicha bolsada, doimo bir xil tuzilishda bo'ladi. Har qanday kishida biz tashqi gajamani ko'rishimiz mumkin. Ichki gajama quloq suprasining o'rtasida boiadi. Pastki qismi esa yumshoq joy bilan tugaydi. Quloq suprasining ichki qismini qarshi gajama qoplagan. Quloq suprasini tashqi tomonidan bukri qism qoplagan. Quloq tasvirini ishlashda quloq suprasining hamma qismalari rassom nazarida bo'ishi kerak. Klassik qo'llanmalarda quloq rasmini ishlash qoidalariiga jiddiy ahamiyat berilgan. Unda rassomlar quloq shaklining qonuniyatları va tasvir qurish uslubiyotini ko'rgazmali tarzda ko'rsatishga harakat qilganlar. David qulog'ining ganch namunasi ishlashi uchun yaxshi qo'ilanma hisoblanadi. Unda shakl strukturasi va plastik xarakteristika yorqin ifoda etilgan.</p> <p>6-mavzu. Ko'z qismini islsh.</p> <p>Ko'z. Qadimgi qo'llanmalarda asosiy e'tibor bosh shakli bo'laklarini ishlash qonuniyatlariga qaratilgan. Talabalarga bosh bo'laklarini turli holat va ko'rinishlarda ishlatish ularning tasvirlash malakasini oshiradi. Bosh shakli bo'laklari rasmlarini biz Jyulyen, Skino, Pukirev va Savrasov, Kardovskiy,</p>
	3

	<p>Barshch, Xitrov, Solov'yev va boshqa mashhur rassom va metodist olimlarning qo'llanmalarida ko'rishimiz mumkin. Ularda ko'z tuzilishiga katta e'tibor berilgan. Ularda rasm chizuvchining diqqat- e'tibori tasvir qurish metodik jihatlariga qaratilgan. Oliy o'quv yurtlari uchun tuzilgan hozirgi zamon o'quv dasturlarida Mikelanjelo Buonarroti haykaltaroshlik ishidan David haykali bosh bo'lagining gips namunasini ishlatish ko'zda tutilgan. Buning asosiy sababi - bu haykal tasviriy san'atda nisbatlarining aniqligi va mukammal ishlanganligi bilan namuna hisoblanadi.</p> <p>7-mavzu. Antik haykal maskasini iashlah.</p> <p>Klassik qo'llammalarda boshning alohida detallarini chizib bo'lgandan so'ng, ularni o'zarboq'liq (burun, lablar, dahan, quloqni boshning unga tutashgan qismi bilan) holda chizish taklif etilgan. Bunday chizish detallaming o'zarboq'lanishini kuzatish, ularning umumiyligini anglashga yordam beradi.</p> <p>Haykaltaroshlikda ham yuz qism bo'laklarini ishlagandan keyin birinchi galda yuz qism maskasi ishlanadi. Bu uslub talabalarga odam yuz qismini naturadan ishlashga zamin yaratadi.</p> <p>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</p> <p>Talaba mustaqil ta'limni bajarish uchun darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganishi; tarqatma materiallar bo'yicha amaliy ishlar bajarishni o'rganish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; talabaning o'quv-ijodiy ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish tavsya etiladi.</p> <p>Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha talabalar O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati va uning namoyondalari to'g'risida o'qib ma'lumot olishadi hamda loy, yoki plastilinda uy vazifasi topshiradi.</p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. O'zbekiston haykaltaroshlik san'ati 2. Haykaltaroshlikda relief 3. Qush va hayvonlar haykalini relefini ishlash 4. Avtoportret 5. XX asr O'zbekiston haykaltaroshligi 6. Odam bosh etyudini ishlash <p>3. V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>"Haykaltaroshlik" o'quv fanimi o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba;</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'quvchilarni tasviriy faoliyatga o'rgatishning mazmuni va xususiyatlari;
--	--

	<ul style="list-style-type: none"> - Haykaltaroshlik ga o'rgatishning didaktik tamoyillari; - tasviriy san'atga o'qitish jarayonida Haykaltaroshlik ishslash mazmuni, metod va texnologiyalari; - milliy va jahon Haykaltaroshlik tarixiga oid ma'lumotni bilish, tasviriy san'at tarixi va nazariysi, haykaltaroshlik qonuniyatları o'rganish. - Haykaltaroshlikni o'qitish jarayonida o'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash; - oddiy geometrik shakllardan boshlab insonning qomatini tasvirlay olishgacha; - tasviriy san'at asarlarini yaratishda haykaltaroshlikning ahamiyati, masho'ulotlarni tashkil etishda haykaltaroshlik asarlarini tahlil eta olish; - maxsus maktabbgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyatga o'rgatish masho'ulotlari uchun, maxsus makablarda haykaltaroshlik darslari uchun ishlanmalar tayyorlashni; - yaxshi o'zlashtiruvchi va iqtidorli o'quvchilar bilan individual darslar olib borish; - tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonini taxlil etish; - o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish to'g'risida malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishslash; • amaliy mashg'ulotlar • taqdimotlarni qilish; • individual loyihibar; • jamoa bo'lib ishslash va himoya qilish uchun loyihibar; • ijodiy ishlar yaratish
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy ishni topshirish.</p>
6.	<p>VIII. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Baymetov B.B. "Haykaltaroshlik va plastik anatomiya" o'quv qo'llanma. Toshkent, Iqtisod-moliya, 2007 2. Baymetov B. Plastik anatomiya (Amaliy mashg'ulotlari). Uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2011 3. Yusupov U. K. "Haykaltaroshlik" o'quv qo'llanma. Toshkent, 2014